

O'QUVCHILARNI TIL O'RGANISHGA QIZIQTIRISH

Abdimo'minova Muborak Ibodulla qizi

Ro'zmatova Gulnavo Musurmonqulovna

Jumayeva Risolat Boyqulovna

Surxandaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 19-IDUM

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida tahlil olayotgan o'quvchilarning chet tilidan olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning qo'llash uslublari tahlil qilingan. Chet tilini turli metodlar bilan o'rgatish eng muhim hodisalardan biri sifatida tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Chet tili, axborot texnologiyasi, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar

Hozirgi globallashuv davrda innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik asoslari o'rganilib, o'quv jarayonida zamonaviy-interfaol o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb muammolari biri bo'lib qolmoqda. Ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzlusiz ta'lim tizimi, xususan, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;
2. O'quvchi-yoshlardagi ma'lumotlilik darjasni, intelektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish oshdi. O'quvchi-yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish hamda, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirilmoqda. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Til

o‘rganish va o‘qitishda innovatsion texnologiyalar kata ahamiyatga ega. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspectida (reading, writing, listening, speaking) qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot - kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir.

Ma‘lumki, darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta‘minlaydi. O‘yin texnologiyasidan foydalanishda o‘quvchining o‘zini namoyon qilishi, hayotda barqaror o‘rnini topishi, o‘zini-o‘zi boshqarishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta‘lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko‘rsatadi. Ta‘kidlash lozimki, o‘yin eng avallo, o‘qitishning bir usulidir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya ham beradi. O‘quvchi inglizcha o‘yin o‘ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi.

Hozirgi davrda mamlakatimizning barcha sohalarida, shu jumladan, xalq ta‘limi tizimida ham amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar barcha pedagoglar oldiga o‘quvchining bilimini yuksak darajada oshirish; mustaqil tafakkurini, ularning hayotiy faolligini rivojlantirish; yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; tafakkur, muloqot, o‘qish, mehnat qilishga bo‘lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda. Har bir bola faqat o‘ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagagi ta‘lim-tarbiya berish jarayonida mana shu xususiyatlarni bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo‘lish lozim. Shular hisobga olingandagina, har bir pedagog o‘zining asosiy vazifasi, ya’ni yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari ham xuddi shunday shakllarda tashkil etilmoqda. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunni o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida duch keladi. O‘qish darslarida bolalarga Davlat ta‘lim standarti talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan bilimlar beriladi. Boshlang‘ich sinf

o‘qish darsliklarida berilgan mavzular doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, istiqlol, vatan, ma’naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O‘qish darslariga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim mazmunida o‘ziga xos hamda o‘quvchi shaxsidan o‘ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yangi bilimlarni ta’lim mazmuniga mos tarzda zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyani ta’lim tizmiga keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini sifat hijhatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Hozirgi kunda dunyo multimedia texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan har xil faoliyat turlarini kompyuterlashtirishning yangi bosqichiga guvoh bo‘lmoqda. Grafika, animatsiya, foto, video, tovush, matn interaktiv ravishda yaxlit axborot muhitini yaratadi, bunda foydalanuvchi sifat hijatidan yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Multimedia texnologiyalarining eng keng qo‘llanilishi ta’lim sohasida - universitet sinflaridan tortib, uy sharoitlariga qadar mayjud. Multimedia mahsulotlari turli xil ma’lumot, namoyish va reklama maqsadlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda, telekommunikatsiyalarda multimedianing joriy etilishi yangi dasturlarning tez sur’atlar bilan o‘sishiga turtki berdi. Ayniqsa, ta’lim jarayoniga multimedialarni olib kirish hozirgi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi.

Multimedia texnologiyalarini o‘quv jarayonlariga joriy etish ta’limni axborotlashtirishning muhim nuqtalaridan biridir. Hozirgi vaqtida multimedia texnologiyalari axborot texnologiyalarining eng jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Multimedia bu foydalanuvchiga yagona axborot muhitida tashkil qilingan yangi ma’lumotlar bilan ishlashga imkon beradigan apparat va dasturiy vositalar to‘plamidir. Kompyuter texnologiyalari bugungi kunda ko‘plab talabalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular, ko‘pincha, ularni oddiy maktab darsligidan ko‘ra ko‘proq qiziqish bilan qabul qilishadi. Hozirgi vaqtida ko‘p ta’lim dargohlarida quyidagilarni topishingiz mumkin: ovoz yozish va ko‘paytirish vositalari (elektrofonlar, magnitafonlar, CD-pleyerlar), tizimlar va telefon, telegraf va radioaloqa vositalari (telefonlar, faksimile qurilmalar, teletayplar, telefon stantsiyalari, radioaloqa tizimlari), tizimlar va televidenie, radioeshittirish vositalari (televizion va radio qabul qiluvchilar, o‘quv televizion va radio, DVD - pleyerlar), optik va proyeksiyon kino va fotografik uskunalar (kameralar, plyonkalar, projektorlar, kinoprojektorlar), bosib chiqarish, nusxalash va boshqa hujjalarni axborotni ko‘paytirish (printerlar, nusxa-

ko‘chirish moslamalari), ma’lumotlarni elektron shaklda namoyish etish, qayta ishlash va saqlash imkoniyatini ta’minlovchi kompyuter vositalari (kompyuterlar, printerlar, skanerlar, plotterlar), aloqa kanallari (modemlar, simli, sun’iy yo‘ldosh, optik tolali, radiorele) orqali axborot uzatishni ta’minlovchi telekommunikatsiya tizimlari va boshqa kanal turlari axborot uzatish uchun mo‘ljallangan aloqa).

Ta‘lim sifatini oshirish uchun texnik vositalar: audio-video, kino materiallari, komp‘yuterlar, videoproektor, slaydlar, badiiy asarlardan parchalar; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan interfaol metodlardan o‘rinli foydalanib kelishmoqda. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari ta‘lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘quvvchi, o‘quvchi shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta‘lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Bu esa o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining faol sub‘yektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Отабоева, М.Р. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М.Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — №4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
2. MD Ismatullaevna, EG Yusupovich. THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL _ROCESS-Euro‘ean Journal of Research and Reflection in ..., 2019
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. «CHET TILINI O‘QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH». Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005